

**ELEKTRON TIJORAT RIVOJLANISHINING YO'NALISHLARI VA  
MUAMMOLARI**

**Saida Safibullayevna Beknazarova**

**Mustofoyeva Malika G'ayratjon qizi**

*Muhammad al-Xorazmi nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

Elektron tijorat atamasi so'nggi vaqtarda juda ommalashib, hayotimizning bir bo'lagiga aylanib bormoqda. Shu o'rinda ushbu sohaga qiziquvchi va undan keng ko'lamda foydalanuvchilar orasida "Elektron tijoratni qanday rivojlantirish mumkin?", "Ushbu yutuqlarga erishish usullari qanday?", "Sohadagi muammo va kamchiliklar nimalardan iborat hamda ularni bartaraf etish yo'llari" kabi ko'plab savollar tug'ilishi tabiiy.

Avvalo, elektron tijorat (inglizcha e-commerce) – butun dunyo bo'ylab katta tezlikda rivojlanib kelayotgan zamонавији iqtisodiyotning bir turi bo'lib, electron aloqa vositalaridan foydalangan holda mahsulotlar, xizmatlar va ma'lumotlarni sotish va sotib olish, o'tkazish va almashtirishga asoslangan savdo turi hisoblanadi. Electron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan ko'pgina farqli tomonlari mavjud. Masalan, xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega, savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjud, sotuvchi mahsulotlarini sotish jarayonining tezlashishiga, yangi va sifatli mahsulotlarni muntazam almashtirishiga, mahsulotlarning aylanma harakatining kengayishiga erishadi. Elektron tijorat yordamida savdoning tashkil qilinishi, firmalarning raqobati kuchayishi, monopoliyadan chiqish va mahsulotlarning sifatini oshirishda samarali yutuqlarga erishish mumkin. Shu bilan birgalikda, xaridorlar kundalik hayotida kerakli mahsulotlar ichidan sifatlilarini onlayn tarzda tanlash hamda chet el firmalariga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Elektron tijorat ko'pgina qulayliklarga ega bo'lsada, biroq zamонавији texnologiyalar asrida bir qator rivojlanishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Electron tijoratning rivojlanishi bevosita internet tarmoqlarining kengaytirilishi hamda foydalanuvchilar uchun tez va sifatli, shu bilan bir qatorda hamyonbop bo'lishi bilan bog'liq.

Ko'pgina Yevropa davlatlarida internet tezligi anchayin samarali ishlasada, Sharq hamda Afrika davlatlarining ayrim hududlarida to'laqonli bunday deb bo'lmaydi. Buning uchun aloqa-telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish, chekkaroq hududlarga ham sifatli aloqa tizimlari, antennalarini o'rnatish, yangi internet tarmoqlarini yaratish va ommaga taqdim etish (bugungi kunda eng yangi versiyasi 5G bo'lib, lekin bu yer yuzi bo'yicha hali keng tarqalmagan, aksariyat aholi 4G, hattoki 3G va H+ dan foydalanib

kelmoqda), shu bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarni qo'llab-quvvatlaydigan aloqa vositalari-telefon, planshet kabi gadjetlarning zamonaviy rusumlarini yaratish zarur.

Elektron tijoratni rivojlantirishning yana bir samarali usullaridan biri bu hech shubhasiz yaxshi reklamadir. Xaridorlarning talab hamda takliflarini o'rgangan holda mahsulotlar hajmini oshirish yoki kamaytirish, ularga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish har tomonlama samara berib, xaridorni eng zarur narsalar bilan ta'minlaydi hamda mahsulotlarning aylanma harakati tezlashishiga sabab bo'ladi. Yaxshi reklama esa xaridorning e'tiborini jalg qiladi, mahsulotning foydali va umumiyligi tomonlari haqida to'laqonli yoritib beradi. Afsuski, reklamaning eski ko'rinishlari - turli afishadagi rasmlar, internet tarmoqlarida tez-tez aylanib turadigan bir necha daqiqali video-roliklar o'z samarasini kerakligicha beryapti deb o'ylamayman. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodda, ayniqsa tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo'llanishi yotadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda reklamani ham zamonaviy texnologiyalashtirish zarurligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mahsulotning 3D ko'rinishini taqdim etish qobiliyatiga ega android qurilmalarini yaratish elektron tijoratning istiqbollarini ta'minlaydi. To'g'ri, anchayin mehnat, vaqt va pul talab qiladigan usul bo'lsada, biroq bu bir martalik, xaridorlarning talab va istaklari esa cheksiz. Tizim yo'lga qo'yilgunga qadar bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, ammo bu amalda tatbiq etilib, natijada xaridorlar qo'lida mahsulotlarning "maketi" bo'lsa, xaridor o'zi istagan buyumni xuddi aslini ko'rib turgandek tanlab olishi, o'ziga hamda mahsulotni tavsiya qilayotgan tijoratchiga yuksak ishonch bildirishi mumkin.

Bundan tashqari, elektron tijorat sohasida ishonchlilik, sifat va xavfsizlik tamoyillari mavjud bo'lib, ushbu tamoyillar bilan bugungi kunda juda ko'p muammolar yuzaga kelmoqda desak adashmagan bo'lamiz. Ko'pgina xaridorlar sotib olingan mahsulot sifati yoxud ko'rinishining aslidagi kabi bo'lmasligi, ishlab chiqarish firmalarining nufuzli brendlar nomidan mahsulotlarini online sotilishi, yetkazib berish xizmatiga layoqatsizlik bilan yondoshilishi, mahsulotning online tijoratda sotib olingan narxi asl yoki bozor narxidan bir necha barobar qimmatligi kabi muammoli vaziyatlarga duch keladi. Eng yomoni esa ayrim tijoratchilarining mahsulot narxini oldindan to'lov qilish evaziga olishi hamda tijoratchi molni yetkazib bermasligi bilan bog'liq. Bunday vaziyatlar insonlarda elektron tijoratga ishonmaslik, undan foydalanmay qo'yish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida kichik elektron tijorat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar (ijtimoiy tarmoqlardagi online do'konlar)ni litsenziyalashtirish hamda nazorat qilish, elektron tijorat prinsiplarini buzgan shaxslarga nisbatan turli choralar ko'rilihini kuchaytirish zarur deb hisoblayman. Bundan tashqari, shaxslarga elektron tijorat haqida bat afsil ma'lumotlar berish, undan foydalanishning samarali usullari to'g'risida

tushuntirish, aholining online savdo bo'yicha savodxonligini oshirish orqali ham ko'pgina yutuqlarga erishish mumkin.

Har bir davlatning iqtisodiy salohiyati uning jahon miqyosida tutgan o'rnini belgilaydi. Shu boisdan ham, elektron tijorat infratuzilmasini takomillashtirish, uning jahon bozorida kuchli raqobatchi sifatida paydo bo'lishini ta'minlash, sohadagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati kelib chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. U. K. YAKUBOV, YO. S. ILXAMOVA, M. I. AZIZOVA. "Elektron tijorat" darslik 1-qism. T.,-2019
2. Mengliyev Sh. "Elektron tijorat tizimlari va ularning ahamiyati" nazariya. T.,-2014
3. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun. T.,-2015